

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	117
Sh.Q.Yuldasheva	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi	127
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari	133
S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili	138
M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili	143
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev	
Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati.....	157
Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
M.A.Davidov	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari	181
X.N.Raximov, G.T.Djalilova	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri	186
M.R.Qoriyev	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar	191
O.N.Nasirov	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	196
R.A.Ikromov	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli	200
S.Nishonova	
Maqollar paremiologik birlik sifatida	205
Sh.A.Tadjibaeva	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	208
S.S.Jabborova	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari.....	213
E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
K.M.Nilufar	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
T.Quyliyev	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli	227
B.M.Qandov	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli	233
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri	238
F.F.Muydinov	
Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
Z.S.Paziljanova	



УО'К: 316.334:338.43(574.1)

**YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA
MILLIY QADRIYATLARNING ROLI**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РЕАЛИЗАЦИИ
СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ**

**THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE IMPLEMENTATION OF THE
DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN**

Ikromov Ravshan Aktamovich 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, hozirgi davrda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatining oshib borishi, yoshlar kamolotidagi o'rni ochib berilgan. Har bir inson hayotining mohiyatini belgilashda ta'lim oldingi o'ringa chiqadi. Insonning dunyoqarashi shakllanishida, hayot sir-asrorlarini o'rganib olishida, hayotda o'z o'nini topishida, xillas, individni o'zi yashaydigan jamiyatning bir bo'lagi – inson sifatida shakllanishida uning bilim olishi juda muhim o'r'in tutadi. Shuningdek, maqolada Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi zaruriyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается возрастающее значение национальных и общечеловеческих ценностей в жизни человека и общества, их роль в развитии молодежи. Образование выходит на первый план в определении сущности жизни каждого человека. Образование играет очень важную роль в формировании мировоззрения человека, в познании тайн жизни, в поиске своего места в жизни, иными словами, в становлении личности как части общества, в котором он живет, - как будущим человеком. Также в статье раскрывается необходимость реализации стратегии развития Нового Узбекистана, основанной на национальных и общечеловеческих ценностях.

Abstract

This article reveals the growing importance of national and universal values in human life and society, their role in the development of youth. Education comes to the fore in determining the essence of every person's life. Education plays a very important role in shaping a person's worldview, in learning the secrets of life, in finding one's place in life, in other words, in becoming a person as a part of the society in which he lives - as a human being. The article also reveals the need to implement the development strategy of New Uzbekistan, based on national and universal values.

Kalit so'zlar: inson, ma'naviyat, ta'lim, axloq, urf-odat, an'ana, millat, taraqqiyot, istiqbol, qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, barkamol avlod, Yangi O'zbekiston.

Ключевые слова: человек, духовность, образование, мораль, традиция, нация, развитие, перспектива, ценность, национальные ценности, общечеловеческие ценности, совершенное поколение, Новый Узбекистан.

Key words: person, spirituality, education, morality, custom, tradition, nation, development, perspective, value, national values, universal values, perfect generation, New Uzbekistan.

KIRISH

Milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o'ziga xos udumlari, uning yuksak axloqiy fazilatlari ma'naviyatimiz o'zagidir. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda milliy qadriyatlarni tiklash, takomillashtirish, o'zligimizni bilish, ma'naviy qadriyatlarni tizimini yaratish umummilliyl, dolzarb vazifalardan biridir. Chunki milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma'naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilishni o'zida ifoda etadi.

Har qanday davlatning innovatsion taraqqiyotdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning innovatsiyalar sohasida davlat siyosatini nechog'liq samarali olib borishi hamda inson kapitalini sifatli shakllantirishiga bog'liq. Inson kapitali insoniyatning va har bir davlatning taqdirini belgilaydigan asosiy mezoniga aylandi. Inson kapitali - inson va umuman jamiyatning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniладиган bilimlar, malakalar va ko'nikmalar to'plamidir.

ILMIY AXBOROT

Endilikda bilim, ta'lif qiyomi "inson kapitali" atamasi bilan atalib kelinadi. Shu vaqtga qadar adabiyotlarda inson kapitali tushunchasi, asosan, bироqlama, ya'ni inson kapitali insonning o'ziga bevosita keladigan foya yoki shaxsni ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatida tushunib kelindi. Inson kapitali orqali faqat birgina insonning o'ziga emas, balki boshqalarga ham naf keltirishi mumkin. Bu esa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jamiyatning inson kapitalining o'sishi, asosan ilm-fan, ta'lif va sog'liqni saqlashning inson salohiyatini rivojlantiradigan yuqori texnologiyalarni yaratish ustuvor ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aytish kerakki, milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma'nnaviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan o'zbek xalqi milliy, ma'nnaviy qadriyatlar va axloq odobga bag'ishlangan maxsus teran ta'lifotlarning merosxo'ridir. Jumladan, YUsuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarlari, Kaykovusning "Qobusnomá", Burhoniddin Marg'inoniyning yetti kitobdan iborat "Hidoya, Husayn Voiz Koshifiyining "Axloqi Muhsiniy" nomli odob-axloq me'yorlarini batafsil yoritib bergen asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotmagan.

X. Qodirova o'zining "Milliy qadriyatlar va ma'nnaviy merosning jamiyat hayotidagi o'rni" nomli maqolasida: "O'zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi" deya ta'kidlaydi.

Akademik H.P.Po'latovning «Sizni yaxshi ko'rар edim, odamlar», «Mustaqilligimiz qadriyatlar», O.P. Umurzoqovaning "Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda", H.A.Aliqulovning "Naqshbandiya qadriyatlar", A.Jalolovning "Mustaqillik falsafasi va falsafa mustaqilligi", ayniqsa F.Temirov va S.Nazarovalarning "Jamiyat va qadriyatlar", E.Yu.Yusupovning "Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati" risolalarini, X.O.Shayxova va Q.Nazarovlarning "Umuminsoniy qadriyatlar va ma'nnaviy kamolot" kitoblarini ko'rsatish lozim. Shu bilan birga Q.H.Xonazarovning "Milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlar" maqolasi, olimning keyingi yillarda chop etilayotgan bir qator boshqa ishlarida, A.M.Jalolovning "Mustaqillik mas'uliyati" kitobida, B.R.Karimov va B.O.To'raevlarning "Oqilona qadriyat mo'ljallari" risolasida mavzuning bir qator jihatlari tahlil qilingan.

NATIJALAR

Bugungi kunda zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi asosan insonning innovations, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga amalga oshirilayotgan islohotlarda milliy va ma'nnaviy qadriyatlar alohida o'rн tutadi. Aytish joizki, milliy qadriyat deganda, eng avvalo, tarixiy sinovlarga bardosh bergen, xalqimizning milliy manfaatlarini o'zida to'liq mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talablariga butunlay javob bera oladigan, asrlar o'tgani sayin qadr-qimmati ortib boradigan g'oyalar tushuniladi.

Darhaqiqat, hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallahaveradi. Shu sababli davrlar silsilasida qadriyatlar shakli, xillari ma'lum bir ma'noda o'zgarib turishi mumkin. Ammo qadriyatlar borki ular shaklu-shamoyilini ham, mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini o'zgartirmaydi. Ularga ta'lif, bilim va ilm-fanni kiritish mumkin. Albatta, bilim hech bir boylikka sotib olinmaydigan, faqat o'rganish, intilish orqasidan keladigan katta xazina hisoblanadi.

Endilikda bilim, ta'lif qiyomi "inson kapitali" atamasi bilan atalib kelinadi. Shu vaqtga qadar adabiyotlarda inson kapitali tushunchasi asosan bироqlama, ya'ni inson kapitali insonning o'ziga bevosita keladigan foya yoki shaxsni ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatida tushinib kelindi. Inson kapitali orqali faqat birgina insonning o'ziga emas, balki boshqalarga ham naf keltirishi mumkin. Bu esa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur.

Xo'sh, inson kapitalini rivojlantirish nima uchun kerak? Unda (inson kapitalini rivojlantirishda) milliy qadriyatlar qanday ahamiyatga ega?

Bugungi kunda inson va uning qobiliyatları, bilimlari, ko'nikmalari har qanday jamiyat ravnaqi va davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omiliga aylandi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lgan "inson kapitali" ning mohiyati ba'zi iqtisodchilar tomonidan "hamma egallagan bilim, ko'nikma va motivatsiya zaxirasи" sifatida talqin etiladi[1, 31]. Aslida, bu kapital sifatida namoyon bo'ladi, chunki u kelajakdag'i daromad manbayi hisoblanadi. Bu inson kapitali, chunki u insonga xos bo'lib, uning ajralmas qismidir.

Dastlab, inson kapitali deganda faqat insonning mehnat qobiliyatini oshiradigan investitsiyalar yig'indisi - ta'lif va kasbiy mahorat tushunilgan. Inson kapitali keng ma'noda iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oila rivoji, bilimlar, intellektual va boshqaruvchi mehnat vositalari, aholi salomatligi va yashash muhiti, zamonaviy malakali kadrlarning yuksak salohiyatidir[2, 19]. Shu jumladan, rivojlanishning samarali omili sifatida inson kapitali mehnat resurslari, bilimlari, intellektual va boshqaruvchi mehnat vositalari, yashash muhiti va mehnat faoliyati vositalarining o'qimishli qismi, samarali bo'lislini ta'minlaydi. G.Bekerning so'zlariga ko'ra: "Inson kapitali - bu har bir insonda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va motivatsiya zaxirasi. U ta'limga, ishlab chiqarishga o'qitishga, sog'liqni saqlashga, migratsiyaga, narxlar va daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashga sarflash shaklida inson investitsiyalari (uzoq muddatli kapital qo'yilmalar) orqali shakllanadi"[3]. Darhaqiqat, ta'lif, sanoat tajribasini to'plash, sog'liqni saqlash, ma'lumot olish inson kapitaliga investitsiyalarni anglatadi. Shu sababli ham bugungi kunda inson va uning qobiliyatları, bilimlari, ko'nikmalari har qanday jamiyat ravnaqi va davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omiliga aylandi. Inson kapitali tushunchasi ancha keng ma'noga ega - bu iqtisodiyotni, jamiyatni va uning boshlang'ich uyali oilasini, ishchi kuchining o'qimishli qismini, butun hayot va mehnat davomida aqli boshqarish qobiliyatini intensiv rivojlantiradigan asosiy kuchdir. Shu jihatdan, «inson kapitali - har qanday mamlakat va davlat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, hukumat organlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lgan to'plangan qobiliyatlar, ko'nikmalar va maqsadlar to'plami»[4, 6].

Iqtisodiy adabiyotlarda inson kapitali - bu sog'liqni saqlash, bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, motivatsiyalarning ma'lum bir zaxirasi sifatida investitsiyalar natijasida shakllanib, shaxs maqsadga muvofiq ravishda ijtimoiy ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida foydalananadi. "Inson kapitali" atamasining ta'rifida eng ko'p uchraydigan tushunchalar bu bilim, ko'nikma, qobiliyatdir.

Ta'kidlash kerakki, ta'lif va kasb-hunar ta'limi insonning bilim darajasini oshiradi, ya'ni inson kapitali hajmini oshiradi. Sog'liqni saqlash kasallanish va o'limni kamaytiradi hamda insonning umrini oshiradi. Migratsiya va ma'lumot izlash ishchi kuchi ish haqi yuqori bo'lgan joylarga va tarmoqlarga, ya'ni inson kapitali narxi yuqori bo'lgan joylarga olib borishiga olib keladi.

Haqiqatan ham, inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas. Taniqli iqtisodchi olimlarning fikricha, inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshligini keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi uchun iste'dodli odamlarni tarbiyalash talab etiladi[5].

Albatta, inson kapitali tushunchasi zamirida inson va uning qibiliyatları majmuasi yotadi. Inson kapitali to'g'risidagi g'oyalar foydali ish unumdarligini oshirish avvalo shaxsning ishchanligini va mahoratini oshirish hamda mashina va asbob uskunalarni takomillashtirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Rus olimi S.A. Kurganskiy asarlarida inson kapitaliga: "Jismoniy shaxslar tomonidan investitsiyalar va jamg'arish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va boshqa fazilatlar to'plami, agar ular tegishli ravishda ishlatsa, yangi qiymat va daromad oqimini keltirib chiqaradi"[6, 287], - deb ta'rif keltirilgan.

MUHOKAMA

Hozirda Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi doirasida olib borilayotgan barcha islohotlar inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonlari keng ko'lamma amalga oshirilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalarida sodir bo'lmoxda. Xususan, inson uchun eng muhim sohalar iqtisodiyot, ta'lif va tibbiyotdir. Aytish kerakki, bugungi kunda yoshlarning yangi avlodni o'sib ulg'aygan - texnik tafakkurga ega raqamli avlod, ulardan gumanistik element chiqarib tashlangan. Ilm-fan inson hayoti uchun yangi muhit yaratadi. "San'at singari, ilm-fan nafaqat insonning madaniy mashg'ulotidir. Ilm - bu bizga ko'rinaladigan hamma narsani qanday qilib hal qiluvchi usul. Shuning uchun aytishimiz kerak: bugungi inson harakatlanadigan va qolishga intilayotgan haqiqat tobora ko'proq fan deb ataladigan narsa bilan belgilanadi"[7, 239].

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ilgari yangi tizim asosida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Besh tashabbus doirasida u yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at va sportga keng jalb qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod o'rtasida kitob o'qishni

ILMIY AXBOROT

targ'ib qilish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish dolzARB masala. Yoshlarning ma'naviyati qanchalik baland bo'lSA, ularning yot hodisalar va g'oyalarga nisbatan immuniteti shunchalik kuchliroq bo'ladi. Albatta, bunday ishlar inson kapitalini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, sog'liqni saqlash, bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olgan inson kapitali XX asrda dunyoning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Osiyoda iqtisodiy o'sish va qashshoqlikni kamaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib inson kapitalini rivojlantirish loyihasini qo'llab-quvvatlamoqda[8].

Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Bu juda murakkab jarayon. Qiyinchilik shundaki, milliy va umumbashariy qadriyatlar murakkab bilimlar tizimi, dunyoqarashi, urf-odatlari, urf-odatlari, marosimlari, hissiyotlari va boshqalarning boy arsenalini qamrab oladi. Haqiqiy dunyo yagona bo'lgan sharoitda va ular haqidagi fikrlar va qarashlar.

Boshqa tomondan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar turli yo'naliishlarga ega: an'analar, marosimlar, urf-odatlari, odatlarni o'z ichiga olgan falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiyat, adabiy, me'moriy, san'at tarixi, diniy ta'lilot qoidalari, fikrlari, maqollari, so'zlari, qarashlari va boshqa milliy hamda umumbashariy durdonalar. Bir tarixiy davrda ular shior, murojaat, nizom, ko'rsatmalar sifatida harakat qilishadi va qonuniy tartibda xizmat qilishadi, bunga rioya qilish hamma uchun majburiydir. Ular tartib, go'zallik va yaxshi fazilatlarni inson hayotiga va umuman jamiyatga olib keladi. Shunday qilib, milliy va umumbashariy qadriyatlar insonni ilmi qiladigan, poklaydigan, haqiqat yo'liga yo'naltiradigan, donolikka chorlaydigan, qadrli, mazmunli, hamma uchun foydali, noyob, o'rnak va muqaddas bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Kelajakda bir xil ajoyib durdonalarni yaratish uchun o'rganish va bilim olish zarurligi ularning pedagogik ahamiyatidir.

Milliy qadriyatlar - bu muayyan etnik jamoalar vakillarining tarixiy o'ziga xosligini aks ettiradigan ma'naviy ideallari to'plamidir. Ular bir xil millatga mansub kishilarning xatti-harakatlari uchun ijtimoiy va me'yoriy-madaniy aksiomalar vazifasini bajaradilar[6, 287]. Demak, yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, shaxsni oilaga tanishtirish vositasi bo'lgan va shu bilan individual mavjudlik vaqtinchalikligini engib o'tishga imkon beradigan qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Qiymat-semantik «mazmun «tayanch punkti tanlovini», ya'ni dunyoqarash ko'rsatmalarini shakllantirishning eng muhim momentidir.

Darhaqiqat, hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallahaveradi. Shu sababli davrlar silsilasida qadriyatlar shakli, xillari ma'lum bir ma'noda o'zgarib turishi mumkin. Ammo qadriyatlar borki, ular shaklu-shamoyilini ham, mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini o'zgartirmaydi. Ularga ta'lim, bilim va ilm-fanni kiritish mumkin. Albatta, bilim hech bir boylikka sotib olinmaydigan, faqat o'rganish, intilish orqasidan keladigan katta xazina hisoblanadi.

Shu sababli ham endilikda bilim, ta'lim qiymati "inson kapitali" atamasini bilan atalib kelinadi. Shu vaqtga qadar adabiyotlarda inson kapitali tushunchasi asosan bирyoqlama, ya'ni inson kapitali insonning o'ziga bevosita keladigan foyda yoki shaxsni ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatida tushinib kelindi. Inson kapitali orqali faqat birgina insonning o'ziga emas, balki boshqalarga ham naf keltirishi mumkin. Bu esa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur.

Darhaqiqat, jamiyatdagi mavqeini anglab, yangi xulq-atvor uslubini o'zlashtirgan inson o'zining shaxsiy inson kapitalini to'plashga alohida ahamiyat beradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, shaxsiy inson kapitalining to'planishi har bir shaxsning shaxsiy xususiyatlariga va mavjud ijtimoiy institutlarga bog'liq bo'lib, bu to'planish murakkab, uzoq va qimmat jarayondir. Inson kapitalini to'plashda inson salohiyati va tegishli kapital ajratib ko'rsatiladi; inson salohiyati zahira sifatida mavjud bo'lib, faqat iqtisodiy faoliyat jarayonida o'zini namoyon qiladigan inson kapitali bo'lish imkoniyatining bir turi sifatida ishlaydi.

Shunday qilib, Yangilanayotgan O'zbekistonning kelajakdagisi rivojlanishi ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy va gumanitar texnologiyalarga asoslangan bo'ladi. So'nggi ikki-uch yil ichida milliy boylikning ajralmas qismi bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Bularga ijtimoiy himoya, inson salomatligi, oilaviy munosabatlar yaxshilanishi, tuman muassasalari faoliyati

yaxshilanishi va ta'lif tizimidagi tub o'zgarishlar kiradi. Demak, hozirgi vaqtida inson kapitali yangi bilimlarning evristik tabiatini bilan bog'liq bo'lgan intellektual kapital shaklini oladi va yosh avlod zamonaviy intellektual kapitalning tashuvchisiga aylanmoqda, unda noyob qadriyatlar, yangi turtki turi, yangi aloqa turlari va yangi ko'nikmalar (shu jumladan raqamli) faol shakllanmoqda.

Inson kapitalini to'plash tarbiyaga sarmoya kiritishdan boshlanadi, ya'ni oilada ota-onas farzandining tug'ilishi bilan unga mablag' qo'yishi zarur. Farzandlarni tarbiyalash juda ko'p mablag' talab qiladi, ammo ayni paytda bolalar ota-onalarning qoniqish manbayidir. Ya'ni, hayot jarayonida odam o'zini harakatga keltiradi, go'yo biron bir «foydale» ish bilan shug'ullanadi va o'zlarining inson kapitalining tarkibiy qismlaridan - ta'lif, sog'liqni saqlash, bo'sh vaqt, tarbiyani o'zaro bir-birini mustahkamlab turadigan erkin energiyani «ajratib» oladi.

XULOSA

Xullas qilib aytganda, Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi doirasida olib borilayotgan barcha islohotlar inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa nafaqat bizning mamlakatda balki jahonda ham so'nggi ikki, uch yilda umummiliy boylikning ajralmas qismi hisoblangan inson kapitali rivojiga e'tibor kuchaydi. Natijada inson kapitali tushunchasi ancha keng ma'noda, ya'ni iqtisodiyot, jamiyat va uning boshlang'ich yachevkasi oilani intensiv rivojlantiruvchi, mehnat resurslarining bilimli qismi, hayoti va mehnat faoliyati davomida intellektual boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan asosiy kuchga aylandi. Shu sababli ham bugungi kunda zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi asosan insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Inson kapitalining turlicha ta'rifi va talqinlari bo'lishidan qat'iy nazar, uning tamalini insonda pirovard natijada bilim, saviya, ko'nikma, mahorat kabi o'ziga xos xususiyat va xislatlarni shakllantirgan ta'lif tashkil etishi bugungi kunda barcha biladigan haqiqat. Ta'limsiz hech qanday inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish yoki foyda olish mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, ta'lif inson kapitalining asosiy komponentlaridan biridir va u ta'lif tizimi, ta'lif xizmati, ta'limning sifati va ijtimoiy hamkorlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, bugungi kunda dunyoda ta'lif barcha qit'alar, mamlakatlар, ijtimoiy qatlamlar orasida shu qadar ommalashdiki, endi u har qanday davlat va jamiyatning moddiy va nomoddiy kapitallari qatoridan joy oldi.

Insonning ta'lif tizimida kerakli bilim va ko'nikmalarni olishi uning kasbiy faoliyatiga va o'z imkoniyatlarini, mehnat qilish salohiyatini hayotda amalga oshirishda poydevor yaratadi. Aynan shu sababli inson kapitali nazariyasida aholining ta'lif darajasi uning asosiy qiymatini tashkil etuvchi muhim komponent hisoblanadi, ta'lif olish va o'z bilim-ko'nikmalarini oshirish esa inson mehnat faoliyatining tarkibiy qismi deb tan olinadi.

Xullas, hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallahaveradi. Shu sababli davrlar silsilasida qadriyatlar shakli, xillari ma'lum bir ma'noda o'zgarib turishi mumkin. Ammo qadriyatlar borki ular shaklu-shamoyilini ham, mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini o'zgartirmaydi. Ularga ta'lif, bilim va ilm-fanni kiritish mumkin. Albatta, bilim hech bir boylikka sotib olinmaydigan, faqat o'rganish, intilish orqasidan keladigan katta xazina hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zamonaviy falsafiy atamalarning izohli lug'ati. – Toshkent: «Universitet», 2018. –B.31.
2. SHapkin I.N. Chelovecheskiy kapital: teoriya, istoricheskiy opyt i perspektivniy razvitiya. - Moskva, 2017. – S.19.
3. Bekker G.S. Chelovecheskoe povedenie: ekonomicheskiy podxod: izbrannye trudy po ekonomicheskoy teorii. – M.: GU-VSHE, 2003.
4. Shapkin I.N. Chelovecheskiy kapital: teoriya, istoricheskiy opyt i perspektivniy razvitiya. - Moskva, 2017. –S.6.
5. Shoumarov D. Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. uzlidep.uz/news-of-party/3127., 04.05.2021.
6. Kurganskiy S.A. Chelovecheskiy kapital: siyosat, struktura, otsenka / Irkut. gos. ekon. akad. - Irkutsk, 1999. - 287 s.
7. Kurnosova E.A. Obespechenie konkurentospособности предпринятий сферы услуг: формирование инновационного поведения // Rossiyskiy ekonomicheskiy internet-jurnal. 2009. №1, -S.239.
8. Shoumarov D. Inson kapitali o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. uzlidep.uz/news-of-party/3127., 04.05.2021.
9. Ibrokhimov F.A. (2023) [Din va huquq](#). Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
10. Farhod Ibrohimov. (2022) [Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy qarashlari xususida](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.